

BADIIY TARJIMADA TARIXIY VA MILLIY ELEMENTLARNING AKS ETTIRILISHI

Hamroyeva Sharifa Shukur qizi,

PhD student of Bukhara State University

s.s.hamroeva@buxdu.uz

[0000-0001-5634-7335](https://orcid.org/0000-0001-5634-7335)

Annotasiya. Mazkur maqolada badiiy tarjimada tarixiylik va milliylikni ifodalash masalalari tahlil qilinadi. Tarixiy davr ruhi, milliy kolorit va madaniy realiyalarni tarjimada adekvat yetkazishning ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, arxaizatsiya, modernizatsiya, neytralizatsiya va kombinatsion yondashuv kabi tarjima usullari hamda ekvivalentsiz leksikani tarjima qilish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida badiiy tarjimada tarixiy va milliy xususiyatlarni saqlash tarjimaning sifatini belgilovchi muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. badiiy tarjima, tarixiylik, milliylik, milliy kolorit, arxaizatsiya, modernizatsiya, neytralizatsiya, tarjima usullari, ekvivalentsiz leksika, madaniy realiyalar, adekvat tarjima.

Kirish. Badiiy tarjimada tarixiylik va milliylik muhim kategoriyalar sifatida asarning mazmuni va badiiy qimmatini to'liq yetkazishda alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiylik bu asarda aks ettirilgan davr ruhi, ijtimoiy muhit, urf-odatlar va tarixiy voqeliklarning tarjimada to'g'ri ifodalanishidir. Tarjimon asar yaratilgan davrning til xususiyatlari, leksik birliklari hamda madaniy realiyalarini chuqur anglab, ularni maqsad til vositalari orqali adekvat tarzda yetkazishi lozim. Milliylik esa asarda ifodalangan xalqning mentaliteti, an'analari, qadriyatlar, turmush tarzi va dunyoqarashining aksidir. Badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash tarjimonning eng murakkab vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki har bir til o'ziga

xos madaniy qatlamga ega bo'lib, ayrim tushunchalar boshqa tilda to'liq muqobilga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda tarjimon izohli tarjima, tasviriyl ifoda yoki ekvivalent birliklardan foydalanadi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon adabiyotshunosligida badiiy asar tarjimalarini qiyosiy o'rganish, ularda milliylikning aks etishi, tarjimalarning haqqoniyligini ilmiy baholash, tarjima asarlarda tarixiy va milliy manzaralarni qayta yaratish kabi masalalarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu muammolarni ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilish ham dolzarb mavzulardan biridir. Xususan, tarixiy romanlarni tarjima qilishda milliylikni qayta yaratish masalasini o'rganish, tarjimada madaniyatlararo farqlarni batafsil tahlil qilish, shuningdek, ayrim ijodkorlarning asarlarini tarjimashunoslik va badiiyat qonuniyatlari asosida tadqiq etish borasidagi izlanishlar alohida ahamiyatga ega. Tarjimashunoslikda tarixiy kolorit masalasi yuzasidan bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, rus tarjimashunos olimi A. Fyodorov, slovak olimi A. Popovich, Sofiya universiteti professori Anna Lilova, nemis tarjimashunos olimi professor A. Noybert va o'zbek tarjimashunos olimlaridan G'. Salomov o'zining "Tarjima tashvishlari" risolasida, Qudrat Musayev esa "Tarjima nazariyasi asoslari" kitobida bu masalalarni batafsil yoritgan. Shuningdek, tadqiqotchi Mavlon Javbo'riyev o'zining "Воссоздание национального характера и исторического колорита в художественном переводе (на материале немецкого перевода романа А. Якубова "Сокровища Улутбека")" nomli nomzodlik dissertatsiyasida milliy xarakter va tarixiy koloritni aks ettirish masalalariga chuqur fikrlar bildirgan. G'. Salomov, R. Fayzullayeva, I. Mirzayev, M. Javburiyev, Sh. Isakova, N. O'rmonova, H. Yusupova, R. Kasimova va O.

Fayzullayev kabi tadqiqotchilar biografik romanlar, she'riyat va folklorda milliylikni qayta yaratish masalasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Ko'p hollarda tarjimonga boshqa tarixiy davrda yaratilgan asarlarni tarjima qilish vazifasi yuklanadi. Bunday matnlarning tili va voqea-hodisalar rivoji hozirgi davr o'quvchilari uchun, hatto ular ona tilida yozilgan bo'lsa ham, tushunish qiyin bo'lib qolishi mumkin. Bu holat tilning rivojlanishi, muayyan davrda yashagan shaxslar va yozuvchilarning dunyoqarashlari bilan bog'liqdir.

Arxaizmlarni tarjimasi xususida to'xtaladigan bo'lsak, A.V.Fyodorov aynan bir tarixiy davrda yaratilgan asarlarni tarjima qilishning quyidagi stilistik yo'nalishlari va tamoyillarini aytib o'tgan:

1. Arxaizatsiya. Bu tarjimada tildagi arxaik vositalardan foydalanish orqali matnni tarixiy ruhda ifodalash usulidir. Bu usulda tarjimon tarixiy koloritni asliga sodiq holda yetkazish maqsadida tarixiylik prinsipiga tayanadi. Biroq, ushbu yondashuv har doim ham samarali natija bermasligi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, tarixiy (mumtoz) asarlarni tarjima qilishda haddan tashqari ko'p tarixiy unsurlarni saqlab qolish (masalan, transkripsiya qilish) matnning umumiy ohangidan chetga chiqishiga, tasvirlangan voqelikning noaniqlashishiga olib keladi.

2. Modernizatsiya(zamonaviylashtirish). Original matnga yoki uning ayrim qismlariga tarjima jarayonida zamonaviy rang berish hisoblanadi va natijada mumtoz asarlarning qimmatining yo'qolishiga olib keladi. Shuningdek, asarda tasvirlangan tarixiy haqiqatning buzilishiga sabab bo'ladi.

3. Neytralizatsiya. Bu usulda tarixiy rang neytrallashadi, asliyat matnning o'zi yaratilgan davr tiliga moslashishi kamayadi va milliy xususiyatlarning yo'qoladi.

4. Kombinatsion usul, ya'ni yuqoridagi u yoki bu yo'nalishlarning majmui hisoblanadi.¹

Shu tariqa, tarixiy davrga mansub badiiy asarlarni tarjima qilishda asliy matnning funksional-semantik va madaniy jihatlarini saqlab qolish tarjimondan yuqori malaka va ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Muhokama. Badiiy asarning milliy shaklini qayta tiklash badiiy tarjimaning eng muhim muammolaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Badiiy asarlar tarjimasida milliylikni qayta yaratish masalalari ko'pincha asarni boshqa tilga ko'chirish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu borada tarjimon milliy xarakterni hayotning real timsollari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xosliklarni yetarli darajada mahorat va aniqlik bilan yetkazishi talab etiladi.

Tarjimon o'zi ishlayotgan asarda aks etgan ijtimoiy sharoitlarni, xalqning tarixiy taraqqiyotini, uning ma'naviy hayoti va madaniy qirralarini chuqur tushunishga qodir bo'lishi lozim. Milliy xususiyatlarni to'g'ri ifodalashdagi har bir kamchilik yoki noto'g'ri talqin o'quvchining manba asar haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, badiiy asarda aks etgan milliylikning yig'indisi – “milliy kolorit” o'z o'rnida asar estetikasi va xalqning o'zligini aks ettiruvchi muhim element sifatida qayd etiladi.

Milliy xususiyatlarga ega so'zlarni tarjima qilishda tarjimonning yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki o'quvchi asarni aynan tarjimon qanday ko'rsa,

¹ Федоров А.В. Основы общей теории перевода. - Москва: Высшая школа, 1983. – С.398.

shunday qabul qiladi. Tarjimon tilning soʻz boyligi bilan birga uning sotsiolingvistik jihatlarini, masalan, murojaat turlari, madaniy normalar va jamoaviy muloqot xususiyatlarini inobatga olishi shart. Bu kabi til bilan bogʻliq tushunchalar madaniyatdan madaniyatga turlicha namoyon boʻladi, va tarjimon bu farqlarni hisobga olgan holda ish yuritishi kerak.

Tarixiy asarlardagi milliy oʻziga xoslik va davr koloritini tarjimada qayta yaratish quyidagi yoʻnalishlarda kuzatiladi:

a) qahramonlarni oʻrab turgan ijtimoiy va moddiy muhit, predmetlar dunyosi hamda turmush tarzining oʻziga xosligini boshqa til kitobxoniga aniq va toʻliq yetkazish;

b) urf-odatlar, anʼanalar, marosimlar, eʼtiqodlar va axloqiy qadriyatlarni asliyatga mos holda qayta yaratish;

v) asar qahramonlarining psixologiyasi, xatti-harakatlari, dunyoqarashi, nutqi, tashqi koʻrinishi va olamni idrok etish tarzini haqqoniy aks ettirish;

g) tasvirlangan voqealar, hodisalar hamda obrazlarga singib ketgan tarixiy davr ruhini iloji boricha toʻlaqonli saqlab qolish.²

Rus olimi L.S.Barxudarov esa ekvivalenti yoʻq soʻzlarning, jumladan, realiyalarning quyidagi tarjima usullarini tahlil qiladi:

1. **Transliteratsiya va transkripsiya** – bu usul tarjima qilinayotgan leksik birlikning yozilishi yoki tovush tuzilmasini qabul qiluvchi tildagi grafik vositalar orqali ifodalashni nazarda tutadi (masalan, sauna – сауна, know-how – хой-хей). L.S. Barxudarov fikriga koʻra, ushbu usul publitsistika va ijtimoiy-siyosiy adabiyot tarjimasida keng qoʻllanilsada, badiiy asarlar tarjimasida tabdil

²Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti.(oʻquv qoʻllanma) – Toshkent: 2012. – B.76.

tarjima usuli emasligini, chunki u tarjima qilinayotgan leksik birlikning ma'nosini to'liq yetkaza olmasligini aytib o'tadi.

2. **Kalkalash** – so'z birikmasi tarkibidagi har bir leksik elementning so'zma-so'z tarjimasi hisoblanadi (brain drain – утечка мозгов). Ushbu usul qo'llanganda ma'no to'liq va mufassal ifodalanishi har doim ham ta'minlanmaydi.

3. **Tavsiflab (izohlab) tarjima qilish** – tarjima qilinayotgan leksik birlik ma'nosi uzun va batafsil izoh orqali ifodalanadi (щи – cabbage soup). Ushbu usulning asosiy kamchiligi – tarjima matnining uzayib ketishi. Shunday bo'lsada, L.S.Barxudarov tavsiflash usulini transkriptsiya yoki kalkalash bilan birgalikda qo'llashni, shuningdek, bu izohlarni iqtibos yoki kommentariya ko'rinishida berishni tavsiya etadi.

4. **Muqobil (analog) tarjima** – tarjima qiluvchi tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti yo'q so'z uchun mazmuni jihatdan yaqin tushuncha – analog tanlanadi. Barxudarov fikriga ko'ra, bu usul realiyalar ma'nosini taxminiy darajada yetkazish bilan bir qatorda ta'riflanayotgan hodisa va obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishga ham imkon beradi.

5. **Transformatsion tarjima** – bu usul semantik, sintaktik va leksik o'zgarishlar (qisqartirish, qo'shish, almashtirish, strukturaviy o'zgartirish va boshqalar) orqali ekvivalentlik darajasiga erishishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, L.S.Barxudarov ekvivalentsiz leksika tarjimasida yangi (murakkab) so'zlar yaratish usulini ham taklif etadi.³

³ Богданова Ирина Ивановна ПРОБЛЕМА ПЕРЕДАЧИ РУССКИХ РЕАЛИЙ ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА (НА МАТЕРИАЛЕ РУССКО-АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДОВ ТРИЛОГИИ А.Н. ТОЛСТОГО "ХОЖДЕНИЕ ПО МУКАМ") – Магистерская диссертация, лингвистика. Язык работы: Русский. Цена: 4860 р. Год сдачи: 2023. – С.35-36.

Xulosa. Shunday qilib, har bir badiiy asar o'ziga xos davr va xususiyat tasvirini o'z ichiga olgan holda yaratiladi va tarjimonning vazifasi ushbu ruhni asl holatda aks ettirish hisoblanadi. Tarjima jarayonida bu talabga rioya qilmasdan, faqatgina mavjud lug'atlarga tayanib ishlash adekvat tarjima yaratish tamoyiliga zid bo'lishiga olib keladi. Bunday holat, muallif matnini zamonaviylashtirishga olib kelishi mumkin, bu esa milliy xususiyatlarni saqlab qolish o'rniga, tilga xos bo'lmagan va noaniq birliklar yoki tarjima tili egalariga xos leksik vositalar bilan almashtirishga olib keladi. Natijada, muallif matni milliy asosdan mahrum bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Богданова Ирина Ивановна ПРОБЛЕМА ПЕРЕДАЧИ РУССКИХ РЕАЛИЙ ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА (НА МАТЕРИАЛЕ РУССКО-АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДОВ ТРИЛОГИИ А.Н. ТОЛСТОГО "ХОЖДЕНИЕ ПО МУКАМ") – Магистерская диссертация, лингвистика. Язык работы: Русский. Цена: 4860 р. Год сдачи: 2023. – С.35-36.
2. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. - Москва: Высшая школа, 1983. – С.398.
3. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti.(o'quv qo'llanma) – Toshkent: 2012. – B.76.
4. Hamroyeva Sharifa Shukur Qizi. (2023). ISSUES OF TRANSLATING NATIONAL COLORING WORDS - REALIAS IN THE NOVEL "NAVOI" BY OYBEK. International Journal Of Literature And Languages, 3(04), 29–33. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue04-06>.

5. Qizi, H. S. S. (2023). THE ANALYSIS OF THE ENGLISH TRANSLATIONS OF ABDULLA KADIRI'S "O'TKAN KUNLAR". American Journal of Philological Sciences, 3(05), 82-87.
6. Sharifa, H. (2024). Overview of the Problems of Equivalence in Translating Texts. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 29, 7-10.
7. Хамроева, Ш. 2025. Анализ национально-культурной лексики в английских переводах узбекского исторического романа «Звездные ночи» Пиримкула Кадырова. Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 3, 2/S (фев. 2025), 241–245. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss2/S-pp241-245>.